

NOQONUNIY QUROLLANGAN TUZILMALARINI CHEGARA OLDI  
HUDUDLARDA YAKSON QILISHDA UMUMQO'SHIN BO'LINMALARINING  
HAMKORLIGINI TASHKILLASHTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7880779>

**Axmedov Nurbaxt Kengesovich**

*Chirchiq oly tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti  
Taktika kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy qurolli mojarolarda shaxar (aholi punktlarida) tank bo'linmalarini qo'llash tajribalari va tank bo'linmalari bilan yangi taktik harakatlar yordamida noqonuniy qurollangan tudalar bilan kurashish harakatlari yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tank qo'shinlari, shaxardagi harakatlar, binoni mudofaa qilish, o't ochish pistirmasi, zamonaviy harbiy mojaro, terrorchi tudalar, shturmchi bo'linma, noqonuniy qurolli tuzilmalar, tank devori, tank karuseli, tank yengi.*

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены опыт применения танковых войск в (населённых пунктах) городских условиях и борьба с применением новых тактических действий танковых подразделения против незаконно вооруженными формированиями.

**Ключевые слова:** танковые войска, городские действия, оборона здание, огневая засада, современный вооруженный конфликт, террористические группы, штурмовая группа, незаконно вооруженные формирования, танковый вал, танковый карусель, танковый рукав.

*"Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va xushyor bo'lishni talab etmoqda. Shu borada O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarining xavfsizligi va daxlsizligini ta'minlash, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yurtimiz ostonasiga xech qanday balo-qazoni yaqin keltirmaslik kabi hal qiluvchi vazifalar hamisha diqqatimiz markazida bo'lmos'i darkor"*

**Шавкат Миромонович Mirziyoyev**

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni*

**NQT bilan kurashishda Davlat chegarasini qo'riqlashni kuchaytirishda hamkorliknitashkillashtirish. Hamkorlik** maqsad, vazifalar, yo'nalishlar va marralar, joyi, vaqt va usullari bo'yicha jangovar vazifalarni bajarish maqsadida, barchabo'linmalarning kelishilgan harakatlari deb tushuniladi.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)**

Davlat chegarasini qo'riqlashni kuchaytirishda xamkorlikni tashkillashtirishning **asosiy maqsadi**:

Davlat chegarasibuzuvchilarini, qurolli bostirib kirishlarni bartaf qilish, qo'paruvchi-diversion guruh (otryad)larini, harbiy-siyosiy guruhlarni va chegara yaqinida boshqa turdag'i namoishkorona harakatlarini o'z vaqtida aniqlash va qo'lga olish (yakson qilish)da xamkorlikdagi bo'linmalarning kuch va vositalar birgalikda qo'llanishini kelishib olishdan iborat.

Davlat chegarasini qo'riqlashni kuchaytirish bo'yicha jangovar vazifani bajarishda bo'linmalarining hamkorligini tashkillashtirish bo'yicha asosiy vazifalari:

- javobgarlik hududlarida davlat chegarasini qo'ruqlashni ko'p pog'onali tizimda tashkillashtirish, davlat chegarasi buzilishiga yo'l qo'ymasligini ta'minlash, dushmanning noqonuniy qurolli tuzilmalari va qo'paruvchi-diversion guruh (otryad)lari qo'shni davlat hududidan davlat chegarasini buzib kirib kelishini o'z vaqtida aniqlash, qurshab olish va yakson qilish;

- davlat chegarasi javobgarlik hududlarini muhandislik jixatidan portilaydigan va portilamaydigan muxandislik to'siqlari bilan jihozlashda muhandislik munosabatlari;

- davlat chegarasi javobgarlik hududidagi DXX, MV, IIV, MG, DBQ va FVV bo'linmalari kuch va vositalarini davlat chegarasini qo'ruqlashga jalb qilishga aniqlik kiritish;

- chegara qo'shlari xamkorlikdagi organlar kuch va vositalarini jangovar tartib elementlari bo'yicha taqsimlash, chegara qidiruvi, qurolli bosqinni qaytarish, qurolsiz fitnalarni oldini olish va DTG larni qidirib topish va yakson qilish bo'yicha birgalikdagi xarakatlar tartibini belgilash;

- o'ziksiz xamkorlikni, xamkorlik qiluvchi barcha organlarning qo'shin va qismlarini kuch va vositalarini ishonchli boshqarishni tashkillashtirish;

- davlat chegarasini qo'ruqlashni kuchaytirishga jalb qilingan bo'linmalar bilan jangovar va maxsus tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirish;

- davlat chegarasini qo'ruqlashda qatnashuvchi barcha xamkorlikdagi bo'linmalar bilan birgalikda razved-qidiruv, pistirma xarakatlari, tezkor-qidirish va rejim tadbirlarini, qumondonlik-shtabi va taktik o'quvlarida mashq qildirish va rejalashtirish.

Hamkorlikning asosiy tamoyillariga quyidagilar:

Birinchidan, aniq umumqo'shin bo'linmalarining jangovar vazifalarini bajarish manfaatida jangda qatnashayotgan kuch va kurashish vositalar harakatlarining joy va vaqtini aniqligi, biroq uning ichida – o'sha va boshqa vazifalarni bajarishdagi asosiy rolni o'ynaydigan bo'linmalarning manfaati. Ushbu tamoyil hamkorlikni mohiyatidan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, jangda qatnashayotgan umumqo'shin bo'linmalari, qo'shin turlari va maxsus qo'shin bo'linmalarning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda harakatlarni kelishish.

Uchinchidan, jangovar harakatlar mobaynida qanday dushman tomonidan,

shunday o'zimizni bo'linmalar tomonidan voqeani rivojlanishini oldindan ko'ra bilish.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini kuchaytirilgan rejimda qo'riqlashda Mudofaa vazirligi bo'linmalar bilan hamkorlikni tashkillashtirish.**

Tinchlik davrida Qurolli Kuchlari tarkibidagi barcha vazirlik, qo'mita va idoralar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasini qo'riqlashni ta'minlashda hamkorlikni tashkillashtirish va doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash bo'yicha oldindan kelishilgan va muvofiqlashtirilgan hamkorlik rejalarini ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu rejalarga belgilangan muddatlarda aniqlik kiritish maqsadida, bo'linmalar komandiri va boshliqlarini jalg qilgan holda ishchi uchrashuvlari o'tkazilishi amalga oshiriladi. Ishchi uchrashuvlarida Davlat chegarasidagi harbiy-siyosiy vaziyat keskinlashganda Mudofaa Vazirligi bo'linmalaridan davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishni kuchaytirish uchun ajratilgan bo'linma komandirlari bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini kuchaytirilgan rejimda qo'riqlashada chegara rayoni tomonidan "chevara qidirushi", "qurolsiz fitnalarni oldini olish" va "qurolli bostirib kirishlarni daf etish"ni tashkil qilish va olib borishda harakatlarini hamkorlikda vazifani bajarish bo'yicha Davlat Xavfsizlik Xizmati (DXX), Mudofaa Vazirligi (MV), Ichki Ishlar Vazirligi (IIV), Milliy Gvardiya (MG), Favqulotda Vaziyatlar Vazirligi (FVV) va Davlat Bojhona Qumitasi (DBQ) tuzilmalari va bo'linmalari jalg qilinadi.

Chegarani qo'riqlash brigadasikomandiri Mudofaa Vazirligi umumqo'shin bo'linmalari bilan davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish bo'yicha ishlab chiqilgan **hamkorlik rejalarida**:

- Davlat chegarasini qo'riqlashni kuchaytirish bo'yicha asosiy vazifalarni;
- Davlat chegarasini qo'riqlashga jalg qilinadigan kuch va vositalarni tarkibi;
- Davlat chegarasi orqali o'tishga uringan dushmanning noqonuniy qo'poruvchi guruhlarini qo'rshab olib borish va yo'q qilishda hamkorlikda harakat qiladigan kuch va vositalarning harakatlanish tartibi, vazifasi, joyi va vaqt;
- har tomonlama ta'minot tadbirlari va bo'linmalarni boshqaruvini amalga oshirish tartibi bo'yicha bataysil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

**Hamkorlik masalalariga aniqlik kiritish** davomida Chegarani qo'riqlash brigadasikomandiri va Mudofaa Vazirligidan kuchaytiruvchi bo'linmalar komandirlari hamkorlikni vazifalari, yo'nalishlari, harakat qilish tartibi va vaqt bo'yicha tashkil qiladi va ular:

- MV kuchaytiruvchi bo'linma tarkibi, kattasi, kuch-vositalari hisobi, chegara posti sohasiga yetib kelish marshruti (asosiy va zahira), yetib kelish vaqt, aloqani o'rnatish tartibi, tezkor bo'ysinuvga o'tish uchun uchrashuv joyi (punkt);
- MV kuchaytiruv bo'linmalarini uchrashuv joyida (punktida) kutib olish tartibi, qo'llaniladigan signallar (kunning yorug' vaqt va tunda);
- xabar qilish, boshqarish va hamkorlik signallarini ma'lum qilishga majbur.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)**

Bo'linmalar o'rtasida o'tkazilgan hamkorlik natijalari belgilangan rejalarda yozma ravishda qayd qilinib, yuqori qo'mondonlikga ma'lumot beriladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi DXX Raisi va Mudofaa Vaziri tomonidan ta'sdiqlangan "Mudofaa Vazirligining Davlat chegarasini kuchaytirish va DXX chegara qo'shinlari bo'linmalari o'rtasida birgalikdagi vazifalarni bajarishga tayyorgarlik ko'rish" rejasি talablariga asosan, har oyning belgilangan sanalarida amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

**Davlat chegarasini qo'riqlashni kuchaytirish uchun ajratilgan bo'linma komandiri hamkorlikni** tashkillashtirishda:

- o'zaro hamkorlikni qanday savollar (bo'linma tarkibi, kuch-vositalar hisobi, chegara posti sohasiga yetib kelish marshruti asosiy va zahira), yetib kelish vaqt, aloqani o'rnatish tartibi, tezkor bo'ysinuvga o'tish uchun uchrashuv joyi (punkt) va kutib olish tartibi, qo'llaniladigan signallar (kunning yorug' vaqt va tunda) bo'yicha DXX chegara qo'shinlari vakili bilan tashkil qilishni;

- shtatdagi va ixtiyoriga berilgan bo'linmalar, hamda qo'shnilar va boshqa o'zaro hamkorlik qiluvchi kuch va vositalar orasida o'zaro yordam ko'rsatish tartibi;

- qo'shinlar maxsus harakatlarini olib borish davomida o'zaro hamkorlik, xabar berish, boshqaruva, tanib olish signallari va ma'lumotlar bilan almashish tartibini belgilab beradi.

**Hamkorlikni tashkillashtirishda tegishli organlari bilan quyidagilar kelishib olinadi:**

- hamkorlikda vazifani bajarish vaqtida bo'ysinish tartibi;
- transport vositalari va komunikatsiya vositalaridan foydalanish tartibi;
- radiatsion, kimyoviy, bakteriologik obyektlarda yong'in bo'lganda tabbiy ofatlar bo'lganda hamkorlik qilish va xabar almashish tartibi;
- aloqani tashkillashtirish tartibi;
- jangovar, texnik, moddiy ta'minot tadbirlarini;
- vazifa bajarish uchun jalb qilinadigan kuch vositalar va ularni jamlanish rayonlarini, vaqtlarini, jalb qilinish tartibini;
- IIBga topshirilgan obyektlar ro'yxati;
- maxsus chegara operatsiyasi o'tkaziladigan hududda jamoat tartibini saqlanishini va ma'muriy hamda huquqiy rejim tadbirlarni ta'minlab beradi;
- qo'shnlarni moddiy vositalar tashishda va harakatlanishlari vaqtida yo'l harakat xavfsizligini ta'minlab berish tartibini;
- toifalangan obyektlardan, radiaktiv, kimyoviy, bakteriologik xavfli hududlardan, zaruriyat tug'ilganida maxsus chegara operatsiya o'tkazish hududidan mahalliy aholini evakuatsiya qilishni;
- jazoni ijro etish muassalaridan mahbuslarni evakuatsiya qilish, tuman MIBga ko'maklashish uchun kuch ajratishni;
- transport va aloqa komunikatsiya tarmog'idan hamkorlikda foydalanish tartibini;

- rayonlarda patrullik qilish va kuzatish uchun kuch vositalar ajratish.

**Chegara bo'linmalari bilan hamkorlikni tashkil qilishda umumqo'shin bo'linma komandiri quyidagilarni muvofiqlashtiradi:**

- davlat chegarasini qo'riqlashni kuchaytirishga tayinlangan bo'linmalarning uchrashish tartibi va qo'riqlash postlari, zastavalarini tashkil qilish joylarini;

- ulardan razvedka ma'lumotlarini olish tartibi;

- chegara oldi mintaqada razvedka-qidiruv harakatlarini olib borish uchun joylarni taqsimlash;

- dushman otryad, guruhlari yorib kirish yoki suqilib kirishida yo'q qilish bo'yicha hamkorlik tartibi;

- DHX CHQ bo'linmalarni harakatlariga aviatsiyani to'g'rilash va o't ochib madad berish tartibini;

- chegara to'siqlari, o't ochish pistirmalarini joylashtirish marra va rayonlarini;

- UUA va jangovar dronlar bilan kurashish tartibini;

- yorib o'tgan yoki chekinayotgan dushmanni yo'q qilish bo'yicha jangovar postlar, zastavalar bo'linmalari bilan hamkorlik tartibini, shuningdek, vujudga kelgan vaziyatda kelib chiqqan masalalarni.

Hamkorlikni tashkillashtirishda umumqo'shin komandiri va shtab tomonidan jangning maqsadi, jangovar vazifalar va ularning bajarilish usullarini bir xil tushunilishiga erishishi;

qo'yilgan vazifani bajarish bo'yicha shtatdagi, biriktirilgan va qo'llab-quvvatlovchi bo'linmalarning harakatlarini muvofiqlashtirish;

yuzaga kelgan vaziyatga ko'ra, bo'linmalarning harakatlarini olib borish variantlari va dushmanni chalg'itish bo'yicha choralarini belgilash, shuningdek, xabar berish, boshqarish va hamkorlik qilish signallarini belgilashi lozim.

Hamkorlikni tashkillashtirishda - jadvalli reja asosiy hujat sifatida xizmat qiladi va ushbu rejani ishlab chiqilishi shtab ofitserlarining amaliyoti, tajribasi, bilimi va ko'nikmalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Hamkorlik jang (harakatlar) mobaynida uzlusiz amalga oshirilishi va doimo aniqlashtirilib borilishi, vaziyat keskin o'zgargan sharoitlarda – esa zudlik bilan aniqlashtirilib yangi qaror qabul qilinishi zarur. Hamkorlik izdan chiqqan vaziyatlarda uni qaytadan tashkillashtirish va barqarorlashtirish bo'yicha zudlik bilan barcha chora tadbirlar amalga oshirilishi shart. Qo'shinlar hamkorligini tashkil qilish va uni doimo olib borish barcha komandir va shtablardan ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, har doim harbiy xizmatchilar hamkorlikni tashkillashtirish bo'yicha, o'zining harbiy-nazariy bilimlarini doimo chuqurlashtirishi, dunyo qarashlarini kengaytirishi, jangovar nizom talablarini chuqurroq o'rganishi va ularni amaliyotda ijodiy qo'llashga e'tibor qaratishlari lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Интернет сайти. [ptth://www](http://www.ptth://www). Новый виды и способы тактических действий в современном войне.